

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ARTIKOV ZAFAR ZARIPOVICH

ATOULLOH XO‘JAYEVNING TARAQQIYPARVARLIK VA
IJTIMOY-SIYOSIY FAOLIYATI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Artikov Zafar Zaripovich

Atoullloh Xo‘jayevning taraqqiyparvarlik va ijtimoiy-siyosiy faoliyati.....3

Артиков Зафар Зарипович

Прогрессистская и социальна-политическая деятельность Атауллага
Ходжаева25

Artikov Zafar Zaripovich

Progressive and social-political activities of Atoullloh Khojaev.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованный работ

List of published works.....53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ARTIKOV ZAFAR ZARIPOVICH

**ATOULLOH XO‘JAYEVNING TARAQQIYPARVARLIK VA
IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PHD/Tar1077 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.buxdu.uz/>) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xaitov Shadmon Axmadovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Ravshan Normuratovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Tayronov Yoqubjon Rapiqovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/27.09.2024.Tar.72.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol, 11. Tel.: 0(365) 221-29-14; faks: 0 (365) 221-26-12; e-mail: bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol, 15-uy.Tel.: 0(365) 221-29-14; faks: 0 (365) 221-26-12;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" iyul kuni tarqatildi (2025-yil "26" iyul dagi 19 - raqamli reyestr bayonnomasi)



A.T. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc), professor

B.B. Boltayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.R. Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globalashuv va integratsion jarayonlar umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy manfaatlar mushtarakligi masalasini, tarixiy shaxslar faoliyati va ilmiy merosini chuqur o'rganishga zarurat kuchaymoqda. Sababi, yer yuzidagi har bir xalq va millat o'zidan yetishib chiqqan buyuk shaxslar, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan faxrlanish tuyg'usini his qiladi. Shundan kelib chiqqan holda turli davrlarda yurt va vatan taraqqiyotiga hissa qo'shgan taniqli shaxslarning millat ravnaqi yo'lidagi xizmatlarini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston va Buxoroda taraqqiyparvarlik, jadidchilik harakati vujudga kelishi, ularning Sharq taraqqiyparvarlari bilan g'oyaviy va mafkuraviy hamkorliklari, millat ozodligi yo'lidagi say-harakatlari borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, jadidchilik masalalarida uning vujudga kelishi, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda maorif sohasidagi islohotlar, Turkistonda yashagan turk zobitlarining maktabchilik sohasidagi faoliyati, jadidlarining hayoti va faoliyati, ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bir qancha ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Shunday bo'lsada, Buxoro amirligida yangi usul maktablarini tashkil etilishi, jadidchilik harakatining taniqli namoyandalarining faoliyatini yoritish, Atoullah Xo'jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyati kabi masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jadidchilik harakati va qatag'on bo'lgan millatdoshlar tarixini o'rganish, ular asarlarini chop etish hamda targ'ib qilish kun tartibiga qoyildi. Qatag'on bo'lgan millatdoshlarning pok ruhlariga ehtirom ko'rgizish, ular haqidagi tarixiy haqiqatni xalqimizga yetkazish borasidagi vazifalar hali oldinda bisyor ekanligi ayon bo'lib qoldi. "O'z mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik g'oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda"¹. Shundan kelib chiqqan holda, Atoullah Xo'jayevning hayot yo'li va faoliyati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, BXSRS hukumatidagi faoliyatini tahlil qilish va milliy istiqlol uchun kurashi, uning shaxsi bilan bog'liq adolatning tiklanishi va avlodlar davomiyligini tahlil qilish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-maydagi PQ-201-son "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi, 2024-yil 19-iyuldagi PQ-270-son "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 6-mart sanasidagi Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi.
<https://www.president.uz/uz/lists/view/6007>

xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2020-yil 8-oktabrdagi PF-5598-son “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi 936-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta‘lim muassasalari tuzilmasida qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Buxoro jadidchilik harakati tarixi va jadid-munavvarlarining ozodlik uchun kurashlardagi ishtiroki hamda eli va yurtiga sadoqat bilan xizmat Atoullloh Xo‘jayev (1880–1937) va uning hayot yo‘liga bag‘ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. *Sovet hokimiyati yillarida e‘lon qilingan ishlar.*

2. *Mustaqillik yillarida yaratilgan asarlar va tadqiqotlar.*

3. *Xorijiy nashrlar.*

Birinchi guruhga sovet hokimiyati yillarida yaratilgan adabiyotlar kiritilgan. Bu o‘rinda F.Xo‘jayev², S.Ayniy³, N.N.Proxorov, B.G‘afforov⁴, G.Yemelyanov⁵, X.Vaxidov⁶ va boshqa tadqiqotchilarning asarlarini alohida ta‘kidlash joiz. Ushbu tadqiqotchilarning adabiyotlar tahlili Atoullloh Xo‘jayev faoliyatiga nisbatan obyektiv munosabatda bo‘lib, uning ma‘rifatparvarlik faoliyati, maktablar ochishdagi jonbozligi, “Yosh buxoroliklar” partiyasidagi ishtiroki va BXSР hukumati tarkibidagi amalga oshirgan ishlari xolisona bayon etilgan.

Ayniqsa, M.Hasanov Fayzulla Xo‘jayevga bevosita bag‘ishlangan kitobida Atoullloh Xo‘jayev shaxsiga murojaat qilganligi bilan bog‘liq jihatni alohida qayd etish mumkin⁷.

1984-yilda tarixchi olim, professor X.Sh.Inoyatovning Moskvada nashr etilgan monografiyasida Atoullloh Xo‘jayev Yosh buxoroliklarning inqilobi va xalq hukumatiga qarshi chiqqan shaxs sifatida akasi Usmon Xo‘ja bilan antisovet kuchlar tomoniga o‘tgan millatchi, qo‘rboshi va amir qo‘shinlari qoldiqlari bilan

² Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: Узбек. гос. изд-во, 1926.

³ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Москва: халқлар марказий нашриёти, 1926. – 29 б.; Shu muallif. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Асарлар. I жилд. – Т., 1963. – 265 б.

⁴ Гафуров Б.Г., Прохоров Н.Н. Падение Бухарского эмирата. – Сталинабад: Госиздат. 1940. – 96 с.

⁵ Эмельянов Г. Вопросы создания и развития государственности узбекского народа в трудах Файзуллы Ходжаева: автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1974. – 22 с.

⁶ Вахидов Х. Просветительская идеология в Туркестане. – Ташкент: Узбекистан, 1979. – 155 с.

⁷ Ҳасанов М. Садриддин Айний ва Файзулла Хўжаев. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1968. – 40 б.; Ҳасанов М. Файзулла Хўжаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – 204 б.

aloqa o‘rnatgan sotqin sifatida talqin etilgan⁸. Sovet hokimiyati yillarida yaratilgan ishlarda Atoulloh Xo‘jayev “millatchi”, “xalq hokimiyatiga qarshi inqilob dushmani”, “qo‘rboshi boylarni qo‘llab-quvvatlovchi”, “xalq molini o‘zlashtirgan”, “sovet tuzumiga qarshi” kabi asossiz ayblar bilan qoralanib kelingan. Atoulloh Xo‘jayev shaxsi 1965-yil 2-dekabrda rasman oqlangan bo‘lsa-da⁹, u haqda sovet hokimiyati yillarida hatto, biron-bir maqola ham yaratilmadi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar *ikkinchi guruhga* kiritib tahlil qilingan. Mustaqillik yillarida XIX asr oxiri – XX asr dastlabki o‘n yilliklarida Buxoro amirligidagi jadidchilik harakati va BXSРdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yaratildi, asarlar va roman-xronikalar, qissalar yozildi. Ularda zamondoshlari qatorida Atoulloh Xo‘jayev faoliyati ham qisqacha bo‘lsa-da, bayon etilgan. Ushbu yo‘nalishda B.X.Ergashev¹⁰, A.Xudoyqulov¹¹, N.N.Naimov¹², D.A.Alimova¹³, Sh.A.Hayitov¹⁴, S.I.Inoyatov¹⁵, Q.K.Rajabov¹⁶, U.J.Rashidov¹⁷, D.M.Jamolova¹⁸, O.Rashidov¹⁹, O.Sh.Ahmadov²⁰ kabilarning ishlarini sanab o‘tish mumkin. Yuqorida nomlari zikr qilingan mualliflar Xo‘jayevlarning jadidchilik harakati ishtiroki va hukumat arbobi sifatidagi faoliyatiga doir ma’lumotlarni berib o‘tadilar.

Ushbu o‘rinda adabiyotshunos olim Sherali Turdiyev o‘z tadqiqotlarida Turkiston mintaqasidan XX asr 20-yillarida Germaniya, Turkiya kabi

⁸ Иноятлов Х.Ш. Народы Средний Азии в борьбе против интервентов и внутренней контрреволюции. – Москва: Мысль, 1984. – 463 с.

⁹ Бухоролик қатагон қилинган уч буюк сиймо: тарих ва тақдир. 3-китоб. – Бухоро: Durdona, 2023. – Б. 34.

¹⁰ Эргашев Б.Х. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате – Т.: Фан, 1991. – 84 с.

¹¹ Худайкулов А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX – начало XX веков): автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – 24 с.;

¹² Наимов Н. Бухоро жадидлари (Тарихий очерклар, хужжатли қисса). – Т.: Фан; 2000. – 47 б.; Наимов Н. Фитрат фожиаси (тарихий қисса). – Т.: Фан, 2005. – 167 б.; Shu muallif. Сўнгги ҳукмдор (тарихий қисса). – Бухоро: Бухоро, 2008. – 170 б.; Shu muallif. Ma’rifatga baxshida umr (tarixiy qissa). – Buxoro: Durdona, 2019. – 236 б.

¹³ Алимова Д. Джадидизм в Средней Азии: пути обновления, реформы, борьбы за независимость. – Ташкент: Узбекистан, 2000. – 23 с.

¹⁴ Хайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоронинг хориждаги талабалари (XX аср 20-йиллари). – Бухоро, 2003. – 27 б.; Хайитов Ш., Бадриддинов С., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикасида иқтисодий, ижтимоий сиёсий, маданий ҳаёт. – Бухоро: Бухоро, 2005. – 154 б.; Хайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи (1917–1991 йиллар). – Т.: Абу Матбуот-Консалт, 2008. – 200 б.; Хайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов О. Бухоро ва бухорийларнинг жаҳоний шухрати. – Т.: Наврўз, 2020. – 205 б.;

¹⁵ Иноятлов С.И. Бухорои шариф хўжалари: Усмон Хўжа, Отаулла Хўжаев, Файзулла Хўжаев аждодлари ва авлодлари шажараси. – Бухоро: Durdona, 2022. – 180 б.

¹⁶ Ражабов Қ., Хайитов Ш., Усмон Хўжа. – Т.: Абу Матбуот-Консалт, 2011. – 44 б. Ражабов Қ. Туркiston ёшлари. Нуқуқ ва бurch jurnali. 2008. – №1. – Б. 40–43.

¹⁷ Рашидов У.Ж. Бухоро Халқ Республикаси (1920–1924 йиллар). – Бухоро: Бухоро, 2003. – 98 б.; Алимова Д., Рашидов У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухородаги сиёсий ҳаракатлар ва курашлар. – Бухоро, 2009. – 115 б.; Рашидов У., Рашидов Ў. XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги сиёсий ва иқтисодий жараёнлар. – Бухоро, 2011. – 68 б.;

¹⁸ Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Мухаррир, 2020. – 168 б.

¹⁹ Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқарувини маҳаллийлаштириш сиёсати (1917–1933 йиллар). – Т.: Наврўз, 2020. – 168 б.; Shu muallif. Ўзбекистон худудида миллий зиёлилар ва болшевикларнинг мафкура кураши (1917–1938). – Т.: Мухаррир, 2022. – 288 б.

²⁰ Аҳмадов О.Ш. XIX аср охири – XX аср биринчи ярмида Бухорода таълим-тарбия тизими. – Бухоро: Durdona, 2021. – 125 б.

mamlakatlarda tahsil olgan talaba va o'quvchilar hayoti haqida ma'lumot berar ekan, Atoullloh Xo'jayev faoliyatiga ham ijobiy baho berib o'tadi²¹.

XXI asr dastlabki o'n yilligida Buxoro jadid munavvarlari va taraqqiyparvarlar haqida maqolalar va asarlar yozish doirasi ancha kengaydi. Ayniqsa, qatag'on qurbonlari bo'lgan millatparvar shaxslar bilan bog'liq turkum maqolalar bosildi. Bu borada N.Naimov²² tadqiqotlarida bevosita Atoullloh Xo'jayev shaxsiga oid ishlar vujudga kelganligi e'tiborga loyiq.

2022-2023-yillarda jadidchilik harakati va qatag'on qurbonlari bo'lgan shaxslarning hayoti, faoliyati, fojiali taqdirlari haqida bir qator monografiya va to'plamlar yaratildi. Bu o'rinda Q.K.Rajabovning ko'p sahifali monografiyasi²³ hamda uch kitobdan iborat "Buxorolik qatag'on qilingan uch buyuk siymo: tarix va taqdir"²⁴ to'plamlarini alohida qayd etish mumkin.

Q.K.Rajabovning monografiyasida "O'n yettilar jinoiy ishi" tufayli Atoullloh Xo'jayev qatag'onga tortilgani va 1937-yil 6-oktabrda Toshkentda safdoshlari Muinjon Aminov, Muxtor Saidjonovlar bilan birga (17 kishi) otuvga hukm qilingani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Olim kitobida avvalda ilmiy jamoatchilikdan sir tutilgan tarixiy hujjatlari, tergov materiallarini kitobning 359–399-sahifalarida ilova tarzida bergani ham muhimdir. Yuqorida qayd etilgan to'plam holidayi uch kitobning uchinchisi bevosita Atoullloh Xo'jayev hayoti va faoliyatiga bog'langanligi tadqiqotchilar uchun qo'l kelishi isbot talab qilmaydi. Atoullloh Xo'jayev haqidagi ma'lumotlar ayrim ilmiy anjuman to'plamlardagi maqolalarda, gazeta maqolalarida bosilib turibdi²⁵.

Uchinchi guruh adabiyotlariga xorijda chop etilgan asarlar va to'plamlar kiradi. Ayniqsa, Turkiyada Buxoro amirligi va BXSР yillarida jadidchilik, milliy mustaqillik uchun kurash masalalariga oid bir qator kitoblar chop etildi. Ularda

²¹ Турдиев Ш. Улар Германияга ўқиган эдилар... – Т.: Фан, 1991. – 70 б.; Шу муаллиф. Улар Германияга ўқиган эдилар... (кенгайтирилган нашри). – Т.: Академ-хизмат, 2006. – 256 б. (Ш. Турдиевнинг хорижда тахсил олган ёшлар ҳақидаги турли матбуот органлари саҳифаларида босилган ўнлаб мақолалари мавжуд).

²² Наймов Н. Атаулла Хўжаев // Бухарский вестник, 9 августа 2000 г.; шу муаллиф. Ҳукуматнинг тугатилиши. Бухоронома, 2010. – №3. – Б. 44-45.

²³ Ражабов Қ. Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917–1991 йй.). – Тошкент: Фан, 2022. – 400 б.

²⁴ Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо: тарих ва тақдир (Файзулла Хўжаевнинг ҳаёти ва фаолиятига доир маълумотлар). Сулаймон Иноятлов, Қахрамон Ражабов. 1-китоб. – Бухоро: Durdon, 2023. – 580 б.; Иноятлов С., Ражабов Қ. Усмон Хўжа (1878, Бухоро; 1968, Истанбул). 2-китоб. – Бухоро: Durdon, 2023. – 448 б.; Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо, тарих ва тақдир (Отаулла Хўжаевнинг ҳаёти ва фаолиятига доир маълумотлар). Отаулла Хўжаев (1880, Бухоро; 1937, Тошкент). 3-китоб. – Бухоро: Durdon, 2023. – 383 б. (Изоҳ: ҳар учала китобнинг тўпловчи ва нашрга тайёрловчилари ва илмий муҳаррирлари тарих фанлари докторлари, профессорлар С.И.Иноятлов ва Қ.К.Ражабовлар).

²⁵ Ҳайитов Ш.А. Латифхўжа Қосимхўжаев – Бухоро тадбиркорларининг вакили ва ҳомийси // Таълим ва инновацион тадқиқотлар (ўзбек, рус, инглиз тилларида) Халқаро илмий методик журнал. Бухоро. 2022. – №9. – Б. 7–11. Тојимаматова М. Ко'nglimdagi iztiroblar arimoqda. Uch ma'rifatparvarning zurriyoti shukronasi. Jadidlar ruhi // Yangi O'zbekiston; 2024-yil 12-iyun, 115-son. Hayitov Sh.A. Buxorolik uch nafar jadid munavvarlariga avlodlarining uch kitobida jamlangan hurmati va ehtiromi / "Jadid namoyandalari ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi o'rni va ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (2024-yil 13-iyun). – Navoiy, 2024. – B. 526–531; Ражабов Қ., Нуриддинов Т. Бухоронинг хорижга юборилган талабалари. / "Jadid namoyandalari ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi o'rni va ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (2024-yil 13-iyun). – Navoiy, 2024. – B. 379–382.; Inoyatov S.I. Aka-uka jadidlar uyida muzey ochiladi. / "Jadid namoyandalari ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi o'rni va ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (2024-yil 13-iyun). – Navoiy, 2024. – B. 13–21.

Buxoro taraqqiyparvarlari, maorif va millat fidoyilari haqida anchagina ma'lumotlar keltirilib, ayrim o'rinlarda Atoullloh Xo'jayev, uning qavm-qarindoshlari faoliyatiga oid fikrlarni uchratish mumkin. Bu o'rinda Nazira Nurtazina, Roji Chaqiro'z, Mehmet Saray, Ahat Andijoniy, Chig'atoy Ko'char, A'zam Hoshimiy, Ma'rufiy Rajabiy²⁶ kabilarning kitoblarini sanab o'tish o'rinli bo'lardi. Yuqoridagi mualliflarning asarlarida Atoullloh Xo'jayev Turkiston mustaqillik kurashida muhim rol o'ynagan taniqli siymolardan biri Usmon Xo'ja Po'lat Xo'jayevning (1878–1968) qardoshi sifatida tilga olinadi. Usmon Xo'ja va Atoullloh Xo'jayev aka-uka bo'lganligi, bir safda turib 1922-yilga qadar Buxoro hukumatida hammaslak sifatida faoliyat yuritganligi, ular Turkiyada 1909–1913-yillarda ta'lim olganliklari xorij adabiyotlaridan o'rin olgan.

Xorij adabiyotlari tahlil etilar ekan, bu o'rinda Usmon Xo'ja Po'lat Xo'jayevning o'g'li Temurxo'ja tomonidan xorijda turib 2001-yilda chop ettirgan turk, ingliz, nemis tillaridagi maxsus to'plamni²⁷, "Buxoro jumhuriyati 101 yoshda" (Buhara cumhuriyati 101 yashinda) kabi onlayn xalqaro konferensiya materiallarini²⁸, Paolo Sartorining monografiya va maqolalari²⁹, Merve O'zbekir chop ettirgan "Yeni Kafkasya" jurnali maqolalar to'plamini³⁰ alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yuqorida zikr qilingan to'plamlarda Atoullloh Xo'jayev haqida, hatto, alohida maqolalar ham mavjud.

O'zbekistonda va xorijda olib borilgan tadqiqot natijalarida yaratilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Atoullloh Xo'jayevning ijtimoiy, siyosiy va taraqqiyparvarlik faoliyati haqida alohida tadqiqot mavjud emas. Bu esa masalani yagona ilmiy ish doirasida o'rganishni taqozo qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlariga muvofiq "Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Atoullloh Xo'jayevning taraqqiyparvarlik va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq qilishdan iborat.

²⁶ Нуртазина Н.Д. Народы Туркестана: Проблемы ислама, модернизации и деколонизации (на рубеже XIX–XX веков). – Алматы: Қазақ университети, 2008. – 166 с.; Raci Çakiröz. Çarlik ve Bolşevik Rusiya'da 10 yıl. Belge yayınlari. – Istanbul, 1990. – 145 s.; Mehmet Saray. Rus işgali devrinde Osmanlı devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler (1775–1875). – Anqara, 1994. – 282 s.; Рачабй М. Ислом, чадидия ва инқилоб. – Душанбе: Дониш, 1997. – 245 с.; Mehmet Saray. "Milli Mücadele Yıllarında Buhara Cumhuriyeti'nin Türkiye'ye Yardımı ve Cumhurbaşkanı Osman Kocaoğlu", Türkistan'da Yenilik Hareketleri ve İhtilalleri / Reform Movements and Revolutions in Turkistan: 1900–1924, Haarlem: SOTA Yayınları, 2001. – 68–74 s. Ahat Andijan. Cedidizmden Bağımsızlığa Hâriçte Türkistan Mücadelesi. Birinci Baskı. – Istanbul, 2003. – 907 s. Çağatay Koçar. Atayurttan Anayurda Türkistanlılar. – Ankara, 2007. – 198 s.; Azam Haşimi. Semerkant ve Buhara'da Kanlı Günler (1917 bolşevik davreminden sonra). Kalender Yayınevi. – Istanbul, 2018. – 176 s.

²⁷ Türkistan'da Yenilik Hareketleri ve İhtilaller: 1900–1924. Osman Hoca Anısına İncelemeler. Timur Kocaoğlu. Haarlem: SOTA Publication, 2001. – 467 s.

²⁸ Buhara Cumhuriyeti 101 Yaşında. Bildireler (Uluslararası Sempozyum Vazilari) Istanbul: Kutlu Yayınevi. – Taşkent: Mumtoz, 2021. – S. 19–31.

²⁹ Altro che seta. Corano e progresso in Turkestan (1865-1917) (Udine: Campanotto Editore, 2003), pp. 160; "İjtihād in Bukhara: Central Asian Jadidism and Local Genealogies of Cultural Change," Journal of the Economic and Social History of the Orient, Vol. 59.1-2 (2016), pp. 193-236;

³⁰ Yeni Kafkasya Dergisinde İdil-Ural, Türkistan, Türk-Rus münasebetleri (1923–1927). Hazırlayan Merve Özbekir. Istanbul, 2017. – 80 s.

Tadqiqotning vazifalari:

Atoullloh Xo‘jayevning yoshlik yillari hamda Buxoro amirligida yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyatini yoritish, jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi ekanligini ochib berish;

Atoullloh Xo‘jayevning BXSР hukumatidagi faoliyatini tahlil qilish va milliy istiqlol uchun kurashi haqida ma‘lumot berish;

Atoullloh Xo‘jayevning siyosiy hokimiyatdan chetlashtirilishi va sovet hokimiyati qatag‘on siyosatining dahshatli oqibatlarini ochib berish;

Atoullloh Xo‘jayev shaxsi bilan bog‘liq adolatning tiklanishi va avlodlar davomiyligini tahlil qilish kabilar qamrab olingan;

Tadqiqotning obyekti sifatida Atoullloh Xo‘jayevning taraqqiyparvarlik va siyosiy-ijtimoiy faoliyati tarixini o‘rganish belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini Atoullloh Xo‘jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyati qatag‘onga tortilish sabablari va tarixiy taqdiri masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, muammoli-xronologik va statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, sinergetik yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Atoullloh Xo‘jayev Buxoro jadidchilik harakatiga birinchilardan bo‘lib kirib kelgan harakat yo‘lboshchilari Mirzo Abduvohid Burhonov (1875-1934), Mirza Siroj Hakim (1877-1914), Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev (1878-1968), Abduqodir Muhiddinov (1892-1934), Muso Saidjonov (1893-1937) kabilar bilan bir davrda faoliyat boshlaganligi, ularning safdoshi ekanligi, jadidlarning ilk tashkilotlari (“Tarbiyayi atfol”, Buxoro jadidlar partiyasi) faoliyatida ishtirok qilganligi, Istanbul ta‘limidan so‘ng (1909–1913) Buxoro amirligining turli bekliliklarida (Qarshi, Shahrisabz, Qorako‘l, G‘uzor, Chorjo‘y) yangi usul maktablari ochib maorifchilik va maktabchilik harakatida faol ishtirok etganligi isbotlangan;

XX asr boshlarida Atoullloh Xo‘jayevning Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar markazida turgan siymolardan biri bo‘lganligi, taraqqiyparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishi tufayli amir tomonidan ikki bor hibsga olinib zindonda saqlanganligi (1915, 1917), 1917-yil aprel manifesti, 1918-yil martdagi “Kolesov voqeasi” kabilar sababli ta‘qib ostiga olinib, muhojirlikda (Samarqand, Toshkent) yashashga majbur bo‘lganligi, BKP o‘ng qanot oqimi vakili sifatida har qanday inqiloblar va qon to‘kilishlarsiz, demokratik o‘zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish tarafdori ekanligi dalillangan;

Atoullloh Xo‘jayevning Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumatida (1920–1924) turli lavozimlarda faoliyat yuritganligi, BXSР dagi sovet hukumati vakillari (Lyubimov, Fonshteyn va h.k.) oldiga milliy armiya, mahalliy millat vakillaridan militsiya tuzish, hukumat huzuridagi “Harbiy tribunal”, “Особый отдел” (maxsus bo‘lim)ni bekor qilish, taslim bo‘layotgan “bosmachilar”ni mahalliy sudlar hukmiga topshirish, ulardan musodara qilingan qurol-yarog‘larni milliy armiya va mahalliy militsiya qo‘lida qoldirish kabi talablarni birinchilardan bo‘lib ilgari surganligi, istiqlolchilik harakti ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlaganligi raqam va dalillar orqali isbotlangan;

Atoullloh Xo‘jayevning “millatchi”, “vatan xoini”, “sotqin”, “chet el ayg‘oqchisi”, “sovet dushmani” kabi asossiz ayblar bilan 1937-yil yanvarda hibsga olinib, 1937-yil oktabrda 16 nafar safdoshlari bilan birga (“17 lar ishi”) asossiz ayblar bilan otuvga hukm qilinganligi, uning nomi oqlangunga qadar (1965-yil 2-dekabr) avlodlari sovet hukumati tomonidan ta‘qib va tazyiqqa olinganligi, mustaqillik yillarida kelib ushbu shaxs haqida tarixiy haqiqat yuzaga kelganligi hamda uning avlodlari haqidagi ma‘lumotlar bilan bog‘liq jihatlar dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Arxiv hujjatlari davriy matbuotda chop etilgan maqolalar hamda xorijiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili orqali Atoullloh Xo‘jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyatidagi ma‘rifatparvarlik, istiqlol uchun kurash, millat va xalq istiqboli haqida qayg‘urish tuyg‘usi bilan yashash, insoniylik hamda xalqchilik, ma‘naviy yetuklik kabi amalga oshirilgan ishlari Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri va sovet hokimiyati yillari tarixini ochib berishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jihatlar aniqlashtirilgan.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi taraqqiyparvarlik harakatida Atoullloh Xo‘jayev ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga oid manbaviy ma‘lumotlar o‘rganilib, xronologik jihatdan tizimlashtirilgan.

BXSRda bir qator lavozimlarda faoliyat yuritgan Atoullloh Xo‘jayevning turli-tuman jamoat tashkilotlaridagi faoliyati, madaniy-ma‘rifiy, xo‘jalik sohalaridagi amalga oshirgan ishlari arxiv hujjatlari orqali o‘rganilib, yangi ilmiy ma‘lumotlar muomalaga kiritilgan. Atoullloh Xo‘jayevning vatan ozodligi yo‘lidagi harakatlari arxiv hujjatlari va boshqa birlamchi manbalar asosida o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada O‘zbekiston Milliy arxivida jamlangan va hanuzgacha maxfiy hisoblangan tarixiy hujjatlarga, O‘zbekistonda va xorijda chop etilgan ilmiy, ilmiy-ommabop va adabiy-tarixiy yo‘nalishdagi fundamental adabiyotlar, maqolalar, esdaliklar hamda respondentlar ma‘lumotlariga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* shundaki, jadidchilik va ma‘rifatparvarlik harakatining faol a‘zosi, BXSR hukumati rahbarlaridan biri, istiqlol uchun tolmas kurashchi Atoullloh Xo‘jayevning Buxoro jadid-islohotchilik harakatida tutgan o‘rni, ijtimoiy-siyosiy faoliyati kabilar ilmiy nazariy bilimlarni kengaytirish, mavzuga doir ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etishga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati*, unda jamlangan dalil va ma‘lumotlardan o‘rta umumta‘lim maktablari va oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, maxsus va tanlov fanlarni o‘qitishda, yosh avlodni vatanparvarlik va istiqlol g‘oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashda, insonparvarlik fazilatlarini targ‘ib etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Atoullloh Xo‘jayevning taraqqiyparvarlik va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tarixiy tahlil qilish natijasida quyidagilar amaliyotga joriy qilindi:

Atoulloh Xo‘jayev Buxoro jadidchilik harakatiga birinchilardan bo‘lib kirib kelgan harakat yo‘lboshchilari Mirzo Abduvohid Burhonov (1875-1934), Mirza Siroj Hakim (1877-1914), Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev (1878-1968), Abduqodir Muhiddinov (1892-1934), Muso Saidjonov (1893-1937) kabilar bilan bir davrda faoliyat boshlaganligi, ularning safdoshi ekanligi, jadidlarning ilk tashkilotlari (“Tarbiyayi atfol”, Buxoro jadidlar partiyasi) faoliyatida ishtirok qilganligi, Istanbul ta’limidan so‘ng (1909–1913) Buxoro amirligining turli bekliliklarida (Qarshi, Shahrisabz, Qorako‘l, G‘uzor, Chorjo‘y) yangi usul maktablari ochib maorifchilik va maktabchilik harakatida faol ishtirok etganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan O‘zMTRK “Mahalla” teleradiokanalini o‘zining “Inson aziz” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda keng foydalanildi (*O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanalining 2024-yil 20-fevraldagi 01-13-148-sonli ma’lumot-nomasi*). Ko‘rsatuvda taqdim etilgan lavhalar teletomoshabinlarga jadidchilik harakati va uning mohiyati haqida tasavvurlarini boyitishga xizmat qildi.

XX asr boshlarida Atoulloh Xo‘jayevning Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar markazida turgan siymolardan biri bo‘lganligi, taraqqiyparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishi tufayli amir tomonidan ikki bor hibsga olinib zindonda saqlanganligi (1915, 1917), 1917-yil aprel manifesti, 1918-yil martdagi “Kolesov voqeasi” kabilar sababli ta’qib ostiga olinib, muhojirlikda (Samarqand, Toshkent) yashashga majbur bo‘lganligi, BKP o‘ng qanot oqimi vakili sifatida har qanday inqiloblar va qon to‘kilishlarsiz, demokratik o‘zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish tarafdori ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan O‘zMTRK “Mahalla” teleradiokanalida efirga uzatilgan dasturlarni ssenariylarini tayyorlashda keng foydalanildi (*O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanalining 2024-yil 20-fevraldagi 01-13-148-sonli ma’lumotnomasi*). Ko‘rsatuvda taqdim etilgan lavhalar teletomoshabinlarga Atoulloh Xo‘jayevning ma’rifatparvarlik harakati tarixida tutgan o‘rni, vatan taraqqiyoti, mustaqilligi, xalq ozodligi, demokratiya uchun kurashda qo‘shgan hissasi, ilm-fan, madaniyatni rivojlantirishdagi amaliy harakatlari haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qildi.

Atoulloh Xo‘jayevning Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumatida (1920–1924) turli lavozimlarda faoliyat yuritganligi, BXSR dagi sovet hukumati vakillari (Lyubimov, Fonshteyn va h.k.) oldiga milliy armiya, mahalliy millat vakillaridan militsiya tuzish, hukumat huzuridagi “Harbiy tribunal”, “Особый отдел” (maxsus bo‘lim)ni bekor qilish, taslim bo‘layotgan “bosmachilar”ni mahalliy sudlar hukmiga topshirish, ulardan musodara qilingan qurol-yarog‘larni milliy armiya va mahalliy militsiya qo‘lida qoldirish kabi talablarni birinchilardan bo‘lib ilgari surganligi, istiqloqlolchilik harakti ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlaganligi haqidagi ma’lumotlar Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi faoliyatida keng qo‘llanildi (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2024-yil 12-avgustdagi 194-sonli ma’lumotnomasi*). Natijalar muzeyda jadidlar bilan bog‘liq turli ko‘rgazmalar

qilishda hamda fondni Atoullloh Xo‘jayev faoliyatiga doir ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qildi.

Atoullloh Xo‘jayevning “millatchi”, “vatan xoini”, “sotqin”, “chet el ayg‘oqchisi”, “sovet dushmani” kabi asossiz ayblar bilan 1937-yil yanvarda hibsga olinib, 1937-yil oktabrda 16 nafar safdoshlari bilan birga (“17 lar ishi”) asossiz ayblar bilan otuvga hukm qilinganligi, uning nomi oqlangunga qadar (1965-yil 2-dekabr) avlodlari sovet hukumati tomonidan ta’qib va tazyiqqa olinganligi, mustaqillik yillarida kelib ushbu shaxs haqida tarixiy haqiqat yuzaga kelganligi hamda uning avlodlari haqidagi ma’lumotlar Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyini boyitishda va belgilangan dasturlarini bajarishda foydalanildi (*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2024-yil 12-avgustdagi 194-sonli ma’lumotnomasi*). Taqdim etilgan materiallar muzey eksponatlarini boyishida, qolaversa, muzeyga tashrif buyuradigan yoshlar, talabalar hamda tarixga qiziquvchilar uchun yana bir qatag‘onga uchragan davlat arbobining hayoti va faoliyati haqida qo‘shimcha manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, shu jumladan, 2 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish e‘lon qilingan. Shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy ish natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, shu jumladan, 5 ta maqola respublika jurnalida, 5 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilova qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Atoullloh Xo‘jayevning Buxorodagi ma‘rifatparvarlik faoliyati va jadidchilik harakatidagi ishtiroki**” deb nomlanib, 2 ta paragrafdan iborat. Birinchi bob tadqiqot doirasida Atoullloh Xo‘jayevning bolalik va yoshlik yillari, ma‘rifatparvarlik harakatiga kirib kelishiga ta’sir etgan omillar uning yangi usul maktablarini tashkil etishidagi faoliyati hamda 1920-yilning kuziga qadar jadidchilik harakatidagi ishtiroki masalalari o‘rganilgan. Atoullloh Xo‘jayev Buxoro amirligi markazi Buxoro shahrida yirik savdogar oilasida dunyoga kelib, uning ma‘rifatparvarlik va jadidchilik harakatidagi

ishtiroki tarixiy adabiyotlarda va arxiv hujjatlarida o'nlab nomlar ostida mavjud bo'lib, turli-tuman shakllarda qayd etilgan³¹. Atoullloh Xo'jayev Buxoro yirik savdogarlaridan biri hisoblangan xo'ja³² toifasiga mansub. Atoullloh Xo'jayev dunyoqarashining shakllanishida bir qator omillar o'zining ta'sirini ko'rsatgan, u taraqqiyparvarlik va ma'rifatparvarlik harakatiga juda yoshligidan kirib kelgan. Atoullloh Xo'jayevning dunyoqarashi shakllanishida Buxoro taraqqiyparvarlarining yo'l boshchisi Ahmad Donish, tatar ma'rifatparvarlarida Kursaviy va Marjoniylarning progressiv qarashlari, jadidchilik g'oyasi otasi Ismoilbek G'aspiralining g'oyalari, taraqqiyparvar qarindoshlari Ubaydullox o'ja va Latifxo'ja kabilarning ibratli hayot yo'li o'z ta'sirini ko'rsatgan³³. Shuningdek, Atoullloh Xo'jayevning 1908-yilda "Tarbiyayi atfol" tashkilotidagi ishtiroki, otasining savdo ishlariga yordam berish orqali Turkistonning turli shaharlarida bo'lishi, 1909–1913-yillarda Istanbul (Turkiya)da tahsil olib qaytganligi kabi omillar uning ma'rifatchilik harakatiga butun vujudi bilan kirishib ketganligidan dalolat beradi³⁴. Atoullloh Xo'jayev 1909-yilda Abdurauf Fitrat tomonidan tashkil etilgan Buxoro jamiyati xayriyasi faoliyatida ham ishtirok qilganligi ushbu tashkilot orqali Buxoro yoshlarini o'qitish uchun akasi Usmonxo'ja, Abdurauf Fitrat, Hamidxo'ja Mehrilar bilan bir safda turganligini arxiv hujjatlar tasdiqlaydi³⁵. Atoullloh Xo'jayevning maktabchilik harakati yoxud yangi usul maktablariga asos solishi ulardagi amalga oshirgan keng miqyosdagi ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Atoullloh Xo'jayev 1912-1913-yillarda avval Buxoroda so'ngra Shahrizabz, Qarshi, Qorako'l va Chorjo'yda maktablar ochdi, hatto Chorjo'ydagi maktabga Chorjo'y hokimi tomonidan xayriya qilinishi hamda muallimlarga ma'lum miqdorda maosh berilishiga erishdi³⁶. Arxiv hujjatlarining ma'lumot berishicha, Atoullloh Xo'jayev ochgan Qarshi va Shahrizabz

³¹ O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA), R-53 fond, 1-ro'yxat, 25-yig'majild, 22-varaq; R-56 fond, 1-ro'yxat, 38-yig'majild, 88-varaq; R-47 fond, 1-ro'yxat, 208-yig'majild, 128-, 129-varaqlar; R-48 fond, 1-ro'yxat, 182-yig'majild, 328-varaq; R-47 fond, 1-ro'yxat, 509-yig'majild, 38-varaq; R-48 fond, 1-ro'yxat, 183-yig'majild, 218-varaq; R-56 fond, 1-ro'yxat, 41-yig'majild, 56-varaq; 52-yig'majild, 0, 01-varaqlar; 296-yig'majild, 44-, 45-varaqlar va h.k. Buxoro axbori, 68-son, 1922-yil oktabr; Buxoro axbori, 145-son, 1923-yil 20-mart; Buxoro axbori, 154-son, 1923-yil 8-aprel. Полвонниёз Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи (хотиралар). – Урганч, 1999. – Б. 375-376. Ражабов Қ. Унутилган сиймо // Бухоро мавжлари (Бухоро). – №3. 2010. – Б. 45; Иноятов С. Бухорои шариф хўжалари Усмон Хўжа, Отаулла Хўжаев, Файзулла Хўжаев аждодлари ва авлодлари шажараси. – Бухоро: Durdona, 2022. – Б. 116.

³² Xo'ja (*forscha* obro'-e'tiborli kishi, sohib, savdogar, murabbiy) – faxriy unvon va murojaat shakli. Xo'ja somoniylar (IX–X asr) va g'aznaviylar (XI–XII asr) davlatlarida ulug' vazir unvoni, usmoniylar saltanatida ulamoni anglatgan. Sulton murabbiysi, saroy kitobdori va haram egalari ham xo'ja deb atalgan.

³³ Маҳмудов А.М. Усмон Хўжа Пўлатхўжаевнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Фарғона, 2022. – Б. 21; Latifxo'ja Qosimxo'jayev haqida qarang. O'zMA. I-2 fond, 11-ro'yxat, 1966-yig'majild, 53-varaq; I-3 fond, 2-ro'yxat, 25-yig'majild, 108-varaq; 126 fond, 2-ro'yxat, 428-yig'majild, 1-varaqning orqasi; R-837 fond, 15-ro'yxat, 163-varaq; 2-, 3-varaqlar; I-461 fond, 60-varaq, 60-varaqning orqasi.

³⁴ O'zMA; I-3-fond, 1-ro'yxat, 1168-yig'majild, 162-, 163-varaqlar; I-3-fond, 1-ro'yxat, 1168-yig'majild, 165-varaq; 198-, 199-, 200-varaqlar; I-3-fond, 1-ro'yxat, 1166-yig'majild, 199-varaq; Наимов Н. Мен яшашни истайман! Роман-хроника. – Бухоро: Бухоро, 1994. – Б. 60-61.

³⁵ O'zMA, I-3-fond, 1-ro'yxat, 1168-yig'majild, 200-, 201-varaqlar; I-461-fond, 1-ro'yxat, 949-yig'majild, 1-, 16-varaqlar; 17-, 20-varaqlar; I-461-fond, 1-ro'yxat, 942-yig'majild, 17-, 18-varaqlar; Buxoro jamiyati xayriyasi // Tarjimon gazetasi (1883–1917), №124. 1909-yil 25-dekabr.

³⁶ Fayzulla Xo'ja. Xotiramda // Buxoro axbori, 48-son, 1921-yil 8-sentabr; Чалол Икромӣ. Он чи аз саргузашт. – Душанбе: Шарқи Озод, 2009. – С. 17. Бобожонова Ф. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Т.: АДЖБ, 2014. – Б. 100-101. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар... – Б. 79-80.

maktablarida 35-40 nafar o'quvchi tahsil olgan, ularga diniy va dunyoviy ta'lim berilgan, tahsil 4-5 soat davom etib, o'quvchilar ko'rgazmali qurollar orqali dunyoviy ilmlardan xabardor qilingan. O'qish badavlat xonadonlarning farzandlari uchun 3 so'm, o'rtahollar uchun 1,5 so'm, kambag'allar uchun tekin bo'lgan³⁷. 1917-yillarda Yosh buxoroliklar tashkiloti faoliyatida barcha safdoshlari singari Atoullloh Xo'jayev markaziy o'rinda turgan. Fayzullo Xo'jayevning ta'kidlashicha, 1917-yilda tuzilgan Yosh buxoroliklar faoliyatini boshqarishga qaratilgan yangi markaz a'zolari tarkibida Atoullloh Xo'jayev muhim siymolardan biri bo'lgan. 1917-yil 7-aprel amir manifesti munosabati bilan o'tkazilgan namoyish kunida "xalq o'rtasidan o'tib qo'shbegiga borgan bizning vakillarimiz Atoullloh Xo'jayev, Mirbobob va Yusufzoda qamoqqa olingan edi" deb yozadi Fayzulla Xo'jayev³⁸.

Fayzulla Xo'jayev 1917-yilda Atoullloh Xo'jayevning Buxoro zindonga tashlangani, keyin ularning Yangi Buxoroga ko'chirilgani haqidagi ma'lumotlarni ham keltirgan³⁹.

Ilmiy tadqiqot ishida Atoullloh Xo'jayevning Buxoro jadidchilik harakatidagi ishtiroki shartli ravishda 4 bosqichga bo'lindi va har bir bosqichda uning jadidchilik harakatidagi tashviqot va targ'ibot borasidagi amirlikda kechgan siyosiy voqealarga munosabati hamda tarixiy jarayonlardagi ishtiroki masalalari alohida tahlil etildi. Atoullloh Xo'jayev Yosh buxoroliklar harakatida ishtirok etar ekan, uning faoliyatida ma'rifatparvarlikdan siyosiy hayotga transformatsiya bo'lib borish jarayoni bosqichma-bosqich bosib o'tilganligi, bu davrda Yosh buxoroliklar partiyasi a'zosi sifatida diniy mutaassiblik va reaktion kuchlarga qarshi kurash olib borayotganligi namoyon bo'ladi⁴⁰. Yosh buxoroliklar partiyasining turli guruhlariga bo'linishi va ushbu guruhlarning g'oyaviy kurashlari davrida Atoullloh Xo'jayev tinch yo'l bilan islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tarafdori bo'lganligi, shu sababli uni so'l eser sifatida Buxoro kompartiyasi safidan chiqarish tashviqoti yuritilganligi dissertatsiyada bir qator sovet mafkurasi asosida yozilgan asarlar orqali tahlil etildi⁴¹. Tadqiqotda Atoullloh Xo'jayevni faoliyati bilan bog'liq jihatlar Fayzullo Xo'jayev hamda Abdurauf Fitrat tomonidan e'tirof etilganligi bilan bog'liq ma'lumotlar keltirildi. Buxoro jadidlari 1918–1920-yillarda, asosan, Samarqand va Toshkent shaharlarida muhojirlikda bo'lishdi. Bu

³⁷ O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yhat, 1998-yig'majild, 1-, 2-, 3-, 4-, 5-varaqlar; I-3-fond, 1-ro'yhat, 192-yig'majild, 19-varaq; I-3-fond, 1-ro'yhat, 454-yig'majild, 52-varaq; I-3-fond, 1-ro'yhat, 456-yig'majild, 18-varaq; I-461-fond, 1-ro'yhat, 1312-yig'majild, 15-varaq; I-3-fond, 1-ro'yhat, 968-yig'majild, 17-varaq; I-2-fond, 1-ro'yhat, 268-yig'majild, 7-, 8-varaqlar.

³⁸ Хўжаев Ф. Бухоро инкилобининг тарихига материаллар... – Б. 92.

³⁹ O'sha asar. – Б. 82; – Б. 87; – Б. 91.

⁴⁰ O'zMA, I-3-fond, 1-ro'yhat, 79-yig'majild, 44-, 45-varaqlar; I-3-fond, 1-ro'yhat, 80-yig'majild, 21-, 22-, 23-varaqlar; Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате (начало XX веков). – Худжанд: Государственное издательство имени Рахима Джалила, 2000. – 176 с. Файзиев Ф.И. Бухоро амирлигида рус манзилгохларидаги ижтимоий, иктисодий ва маданий хаёти (1868–1920 йй.): тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Бухоро, 2022; Хайитов У.Я. Файзулла Хўжаевнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти ва унинг Ўзбекистондаги сиёсий жараёнларда тутган ўрни: тар. фанл. фалс. докт. (PhD) дисс. – Бухоро, 2022.

⁴¹ Искандаров Б.И. Бухара (1918–1920) – Душанбе: Дониш, 1970. O'zbekiston Milliy Arxivining ilmiy ma'lumotlar kutubxonasi. Inv.: 21468. – С.137. Искандаров Б.И. Бухара (1918–1920). – С. 138; – С. 80; – С. 139.

davrda Yosh buxoroliklarnig Samarqand markazida Atoullloh Xo‘jayev va Rahmat Rafiq rahbarlik qilishgan⁴².

1908–1920-yillarda Atoullloh Xo‘jayevning siyosiy faoliyati “Tarbiyayi atfol” (1908), “Yosh buxoroliklar” tashkiloti, Buxoro kommunistik partiyasi kabilarda kechib, ushbu inson jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Hamidxo‘ja Mehri, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy kabilar bilan bir safda bo‘lganligini tarixiy manbalarning ma’lumotlari to‘la tasdiqlaydi. Xullas, Atoullloh Xo‘jayev yoshlik yillaridan ma’rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik harakatiga faol kirib keldi, Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning muhim ishtirokchisi bo‘lib, amirlik sharoitida demokratik g‘oyalarni ilgari surdi.

“Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati yillarida Atoullloh Xo‘jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va istiqlol uchun kurashlardagi ishtiroki” deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida Atoullloh Xo‘jayevning 1920–1923-yillarda BXSR hukumati tarkibidagi turli mansablarda faoliyat yuritganligi Nozirlar Sho‘rosi hukumatining a‘zosi sifatida Buxoroda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi ishtiroki, shuningdek, istiqlol uchun kurashlarda oldingi saflarda bo‘lganligi arxiv manbalari, davriy matbuot materiallari va adabiyotlar qiyosiy tahlili orqali ochib berilgan. Atoullloh Xo‘jayev BXSR hukumati tashkil topgan 1920-yil sentabrda 1923-yil kuziga qadar Qarshi viloyatining inqilobiy qo‘mitasi raisligidan BXSR Nozirlar Sho‘rosi raisi vazifasini bajaruvchi mansabiga qadar bo‘lgan bosqichni bosib o‘tdi. U BXSR Tashqi ishlar xalq noziri, Ishki ishlar noziri, Nozirlar sho‘rosi raisi o‘rinbosari, BXSRning Moskvadagi muxtor vakili, Sharqiy Buxoroda hukumatning mas’ul vakili kabi lavozimlarda faoliyat yuritdi⁴³. Dissertatsiyada Atoullloh Xo‘jayevning tez-tez o‘zgarib turgan lavozimlari ularda faoliyat yuritilgan tarixiy-xronologik chegaraga arxiv hujjatlari orqali aniqlik kiritildi. Arxiv manbalarida saqlangan o‘nlab hujjatlarda 1921–1923-yillarda unga turli nozirliklar rahbari sifatida murojaat qilingan xat, telegramma, so‘rovnoma va bildirishlar saqlangan⁴⁴. Atoullloh Xo‘jayev BXSR hukumatining boshqa rahbarlari singari tez-tez bir lavozimdan ikkinchi lavozimga o‘tkazib turilgan. Nazarimizda, “Markaz” BXSR Nozirlar kengashi raisi Fayzulla Xo‘jayevdan hukumat azolarini “tozalash” topshirig‘ini talab qilganida Fayzulla Xo‘jayev sofdil, xalq manfaati uchun ishlaydigan xodimlarni bir mansabdan ikkinchisiga o‘tkazish orqali ularni hukumat tarkibida saqlab turishga harakat qilgan. Atoullloh Xo‘jayev BXSR hukumatining qaysi lavozimida faoliyat yuritmasin, u BXSR milliy manfaatlarini himoya qilgan, ayniqsa, uning Moskvaga elchi (safir), konsul qilib tayinlanishi Buxoro manfaatlarini himoya qilish, RSFSR va BXSR o‘rtasidagi iqtisodiy-madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarni kengaytirish, buxorolik o‘quvchi va

⁴² Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Б. 124; – Б. 140. Наимов Н. Фитрат фожиаси (тарихий қисса). – Т.: Фан, 2005. – Б. 82–96.

⁴³ О‘зМА, R-48 фонд, 1-ро‘yxat, 183-yig‘majild, 58-varaq; 76-varaq; 39-varaq; 72-yig‘majild, 29-, 30-, 33-varaqlar.

⁴⁴ О‘зМА, R-48 фонд, 1-ро‘yxat, 183 yig‘majild, 40-varaq; R-48 фонд, 1-ро‘yxat, 72 yig‘majild, 33-varaq; 29-, 30-varaqlar; R-53 фонд, 1-ро‘yxat, 7-yig‘majild, 18-varaq; R-48 фонд, 1-ро‘yxat, 183-yig‘majild, 23-varaq; 4-varaq; R-53 фонд, 1-ро‘yxat, 25-yig‘majild, 31, 32-varaqlar; R-56 фонд, 1-ро‘yxat, 28-yig‘majild, 12-varaq.

talabalarni Germaniyaga o'qishga yuborish bilan bog'liq keng qamrovli jihatlarida namoyon bo'ladi⁴⁵. Atulloh Xo'jayev RSFSR Tashqi ishlar nozirligi orqali Germaniya konsuliga murojaatlar qilgan va Germaniya o'quv yurtlarida buxorolik o'quvchi talabalarni joylashtirish, ularning moddiy ta'minotini yo'lga qo'yish masalalarida juda katta ishlarni bajargan⁴⁶. Dissertatsiyada Atulloh Xo'jayevning serqirra tashkilotchilik va rahbarlik faoliyati tahlil qilinarkan, BXSReda aholi ijtimoiy-maishiy turmushini yuksaltirish, zamonaviy transport vositalarini xorijdan olib kelish, yo'lsozlikni rivojlantirish, Dobroflot va Dobrolyot kabi jamiyat va uyushmalar ishini yo'lga qo'yish, kasaba uyushmalar va yoshlar tashkilotlariga rahbarlik qilish kabi ko'plab masalalar Atulloh Xo'jayev diqqat-e'tiborida bo'lgan⁴⁷. Arxiv manbalarining ma'lumoticha, Atulloh Xo'jayev Buxoroda zamonaviy aeroport bunyod etish, Germaniyadan aholini tashishga xizmat qiladigan Yunkers samolyotlarini keltirish, Ford rusumli avtomobillarni Buxoroning barcha yo'llari bo'ylab harakat qilishi kabi masalalarida Fayzulla Xo'jayevga eng yaqin ko'makdosh bo'lgan. Arxiv hujjatlarida aynan bu masalalarda Atulloh Xo'jayev markaziy siymolardan biri bo'lganligi qayd etilgan⁴⁸. Tadqiqotda Atulloh Xo'jayevning Moskva (RSFSR)ga maorif uyiga o'quvchilarni to'plash, ularni tanlash, yuborish, Turkiston ASSR va XXSRdan BXSReda muhojir fuqarolarini evakuatsiya komissiyasi orqali Buxoroga qaytarishda Atulloh Xo'jayevning xizmatlari beqiyos bo'lgan⁴⁹. Atulloh Xo'jayev BXSReda hukumati a'zolari bilan hamjihatlikda adolatli sud boshqaruvini tashkil etish, zamonaviy qozixonalar ishini yo'lga qo'yish, adliya sohasida islohotlar o'tkazish borasida ham samarali faoliyat yuritgan⁵⁰. Uning BXSReda hukumati faoliyati maqsad va vazifalarini belgilab berishga qaratilgan o'nlab nutq va ma'ruzalari BXSReda xalq qurultoylari, yoshlar ittifoqlari uyushmalari qurultoylarida va turli darajadagi anjumanlardagi chiqishlari arxiv manbalarida hamda o'sha davr davriy matbuoti sahifalarida saqlangan⁵¹. Tadqiqotda Turkiston mintaqasida mavqega ega bo'lgan

⁴⁵ Наимов Н. Бухоро жадидлари (Тарихий очерклар, ҳужжатли қисса). – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 15. Иноятгов С. Бухорои шариф хўжалари: Усмон Хўжа, Отаулла Хўжаев, Файзулла Хўжаев аждодлари ва авлодлари шажараси. – Бухоро: Durdona, 2022. – Б. 122-123; Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. – Тошкент: Абу Матбуот-Консалт, 2012. – Б. 123. О'zMA, R-47 fond, 1-ro'yxat, 215-yig'majild, 28-, 29-varaqlar; О'zMA, R-48 fond, 1-ro'yxat, 182-yig'majild, 328-varaq.

⁴⁶ Вухоро ахбори. 92-сон. 1922-йил 25-йул. Hayitov Sh., Rahmonov K. Вухоро Халқ Республикаси ва Германия хамкорлигининг тарихий лавҳалари. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 32; Масков-Вухоро консулидан Германия консулига // Вухоро ахбори; 95-сон. 1922-йил 16-август; Хайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоронинг хориждаги талабалари (XX асрнинг 20-йиллари). – Бухоро, 2003. – Б. 15; Қаюмхон В. Қийратилган қисматлар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати; 1992 йил 24 апрел; О'zMA, R-56-fond, 1-ro'yxat, 28 yig'majild, 13-varaq.

⁴⁷ Добровольный флот РСФСР в Бухаре Известия Бухкомпартии. 7 ноября 1922 года. – №109(220). О'zMA, R-48 fond, 1-ro'yxat, 47-yig'majild, 7-varaq; О'zMA, R-71 fond, 1-ro'yxat, 30-yig'majild, 5-6 -varaqlar; О'zMA, R-47 fond, 1-ro'yxat, 208-yig'majild, 31-, 32-varaqlar; 48-varaq; О'zMA, R-53 fond, 1-ro'yxat, 52-yig'majild, 38-, 39-varaqlar.

⁴⁸ О'zMA, R-48 fond, 1-ro'yxat, 169-yig'majild, 20-, 21-varaqlar; О'zMA, R-48 fond, 1-ro'yxat, 183-yig'majild, 218-varaq; О'zMA, R-48 fond, 1-ro'yxat, 171-yig'majild, 23-, 24-varaqlar; 70-varaq.

⁴⁹ О'zMA, P-59 fond, 1-ro'yxat, 15-yig'majild, 1-, 2-, 3-varaqlar; 6-varaq; 7-, 8-varaqlar; 9-, 12-varaqlar; О'zMA, P-621 fond, 1-ro'yxat, 1-yig'majild, 28-varaq.

⁵⁰ О'zMA, P-48 fond, 1-ro'yxat, 296-yig'majild, 44-, 45-varaqlar; 53-varaq; Umumiy qozilar qurultoyi // Вухоро ахбори, 145-сон, 1923-йил 20-март. Шо'ровий ва умумий қозиларининг биринчи қурultoyi. Hozirgi ahvolimiz haqida o'rtoq Ato Xo'ja ma'ruzasi // Вухоро ахбори, 154-сон, 1923-йил 8-апрел.

⁵¹ О'zMA, R-56 fond, 1-ro'yxat, 11-yig'majild, 1-, 3-varaq; 406-varaq. О'zMA, R-56 fond, 1-ro'yxat, 17-yig'majild, 14-, 23-varaq.

RSFSR hukumati vakillari bilan mohirona diplomatik munosabatda bo'lganligi, jumladan, Turkfront qo'mondoni Shorin, Bik, Kazakov, Kamenov kabilar bilan olib borgan muzokaralari, ular tomonidan ushbu shaxsni e'tirof etishga majbur bo'lganliklari bayon qilingan⁵². Dissertatsiya ikkinchi bobining ikkinchi paragrafida Atoullloh Xo'jayevning BXSr hukumati tarkibida dastlabki yildanoq istiqol uchun kurash maydoniga kirganligi bilan bog'liq bo'lgan jihatlar tahlil qilingan. Atoullloh Xo'jayev istiqolchi tashkilotlar va uyushmalar bilan aloqaga kirishgan, ularning ezgu niyatlarini himoya qilgan, Buxoro istiqolli, Milliy istiqol kabi tashkilotlar faoliyatini qizg'in qo'llab-quvvatlagan⁵³. Atoullloh Xo'jayevning istiqol uchun kurashlardagi faoliyati Sharqiy Buxoroda Davlatmandbiy Kamoliddin o'g'li bilan 8 punktdan iborat bitim tuzilishi, qo'rboshilar bilan muzokaralarni mahalliy boshqaruvlarga jalb etishi, "bosmachilar"ga umumiy afv berilishini talab qilishi, "bosmachilar"dan olingan qurol-yarog'larni xalq militsiyasi qo'lida qoldirishi, taslim bo'lgan "bosmachilar" bilan sulh tuzishi va mehmondo'stlik va sovg'alar almashinuvi asosida rasmiy muzokaralar olib borishi bilan bog'liq jihatlar arxiv manbalari orqali dalillangan⁵⁴. Masalan, Atoullloh Xo'jayev 1923-yil 20-fevralda imzolangan 30C-raqamli buyrug'ida "bosmachilar"dan o'lja qilingan pulemyot, patron va qilichlar militsionerlar ixtiyorida qoldirilsin va ta'mirlansin, qo'rboshi Xudoyberdi va uning yigitlari afv etilsin deyilgan⁵⁵. Atoullloh Xo'jayev BXSr hududida qizil armiya qismlari RSFSR-Buxoro shartnomalariga xilof ravishda harakat qilayotganligi, Buxoro fuqarolarini asossiz ravishda hibsga olayotganligi, tinch aholining mol-mulkiga tajovuz qilayotganligini, Buxoro hukumati mustaqilligini amalda oyoqosti qilayotganligini o'zining e'tirozli fikrlari bilan bayon qilganligi arxiv manbalaridan joy olgan⁵⁶. Dissertatsiyada manba va adabiyotlar tahlili orqali Atoullloh Xo'jayev va uning safdoshlaridan 4 kishini (Abdurauf Fitrat, Sattorxo'ja, Muinjon Aminov, Naimjon Yoqubzoda) asossiz ravishda yasama ayblar bilan hukumatdan chetlashtirildi. Aslida ular mustaqil fikrli, mustamlakachilar bilan barcha masalalarda murosaga kela olmaydigan, istiqol uchun kurashlarda chekinmagan sobitqadam kurashuvchilar edi⁵⁷. Atoullloh Xo'jayevning istiqol uchun kurashi sovet mafkurasida "xalq dushmani" sifatida soxta maqolalar yaratilishiga sabab bo'ldi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Atoullloh Xo'jayevning qatag'on qilinishi va uning avlodlari taqdiri**" deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda Atoullloh

⁵² O'zMA, R-56 fond, 1-ro'yxat, 28-yig'majild, 61-varaq; O'zMA, R-47 fond, 1-ro'yxat, 208-yig'majild, 128-, 129-, 130-, 131-, 132-varaqlar; O'zMA, R-47 fond, 1-ro'yxat, 343-yig'majild, 70-, 71-, 72-, 73-, 74-, 80-varaqlar.

⁵³ Тарихнинг номаълум саҳифалари (илмий мақолалар) IX китоб. Нашрга тайёрловчи Баҳром Ирзаев. – Т.: Академнашр, 2020. – Б. 201. Бухорода яширин уюшма // Қизил Байроқ; 206-сон, 1922 йил 16 август.

⁵⁴ O'zMA, I-46 fond, 1-ro'yxat, 40-yig'majild, 17-varaq; O'zMA, R-46 fond, 1-ro'yxat, 42-yig'majild, 17-, 18-varaq.

⁵⁵ O'zMA, R-48 fond, 1-ro'yxat, 171-yig'majild, 19-varaq.

⁵⁶ O'zMA, R-48 fond, 1-ro'yxat, 171-yig'majild, 63-varaq; O'zMA, R-47 fond, 1-ro'yxat, 208-yig'majild, 6-, 7-varaq; O'zMA, R-46 Fond, 1-ro'yxat, 42-yig'majild, 17-varaq.

⁵⁷ Sobiq Buxoro Nozirlari nima bilan mashg'ul bo'lganlar // Ozod Buxoro, 1923-yil 16-oktabr. – №1(214)-son. Qizil O'zbekiston, 1923-yil, 12-oktabr; Naimov N. Buxoro jadidlari. – T.: Fan, 2000. – B. 47; Shu muallif. Хукуматнинг тарқатилиши // Бухоронома, 1997 йил 17 декабр. – №92. Rahmonov K. F. Xo'jayevning Berlindan maktublari // Buxoro mavjlari, 2006. – №1.

Xo‘jayev va uning safdoshlarining qatag‘on domiga tortilishi ushbu shaxsga nisbatan asossiz ayblar qo‘yilib, qatl qilinishi hamda sovet hokimiyatining siyosiy qatag‘on qilingan Atoullloh Xo‘jayev avlodlariga nisbatan noinsoniy shafqatsiz munosabati hamda keyingi avlodlar taqdiri masalalari tahlil etilgan. Atoullloh Xo‘jayevga nisbatan sovet hokimiyatining jismoniy va ma‘naviy zug‘umlari, tergov jarayonidagi “antisovet unsur”ga ta’sir etish usullari tadqiqotda tarixiy hujjatlar orqali tahlil etilgan⁵⁸. Xalq dushmani va Vatan xoini tamg‘asi bosilgan Atoullloh Xo‘jayev “katta terror” davrining qurbonlaridan biri bo‘lgan. U bilan birga o‘n yetti nafar safdoshi 1937-yil 19-yanvardan 1937-yil 6-oktabrga qadar tergov qilingan. Tergov hujjatlarining bir qismi tarixchi olimlar S.I.Inoyatov va Q.K.Rajabovlar tomonidan e‘lon qilindi⁵⁹. Dissertatsiyada “O‘n yettilar ishi” yuzasidan mash‘um otuv hukmi 1937-yil 25-oktabrda Toshkent shahrida ijro etildi⁶⁰. Atoullloh Xo‘jayev va uning safdoshlari istiqloq uchun kurashgan Milliy ittihad tashkiloti a‘zolari sifatida keskin qoralangani, bu guruhni qo‘zg‘olonchi guruhlar tashkil etgani, terroristik faoliyat olib borgani, “bosmachi” unsurlarni himoyaga olgani, sovet hokimiyatini ag‘darish va xo‘jalik iqtisodiy tartiblarini barbod etish uchun faoliyat yuritgani kabi ayblar Atoullloh Xo‘jayev shaxsiga qo‘yilgan ayblov bo‘lgani ilmiy ishda ko‘rsatib berilgan⁶¹. Tadqiqotda Atoullloh Xo‘jayev va uning safdoshlari bilan bog‘liq tergov hujjatlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, qatag‘onga tortilganlarni bir-biriga nisbatan yolg‘on ko‘rsatma berishga majbur qilinganligi ayon bo‘ladi⁶². Dissertatsiyada Muinjon Aminov va Atoullloh Xo‘jayev bilan birga faoliyat yuritgan boshqa shaxslarning ko‘rsatmalari tahlili alohida qarab chiqildi⁶³. Atoullloh Xo‘jayev haqidagi tarixiy haqiqat 28 yildan so‘ng, ya‘ni 1965-yil 2-dekabrda tiklandi, biroq sovet hokimiyati yillarida Atoullloh Xo‘jayev haqidagi ma‘lumotlar jamoatchilikda sir tutib kelindi.

Tadqiqot ishida Atoullloh Xo‘jayev avlodlarining taqdiri masalasi ham alohida paragrafda o‘rganilgan. Atoullloh Xo‘jayevning farzandi Inoyatxo‘ja Atoulllohxo‘jayev (1896–1987) va uning volidayi muhtaramasi “xalq dushmani” avlodlari sifatida ta‘qibga olingan, yashash joylarini o‘zgartirishga harakat qilishgan, Inoyatxo‘ja G‘oziyon mahallasida bir muddat tutqunlikda saqlangan. Mehnat faxriysi, iqtisodchi olim D.S.Yadgarov “Bu oila Buxoroning mashhur sulolasi, Fayzulla Xo‘jayevga yaqinligi va Sobiq Ittifoq davrida bularning qiynalib ko‘p azoblar chekkanligini ham buxoroliklar yaxshi biladi⁶⁴” deb yozgan edi.

Atoullloh Xo‘jayevning farzandi Inoyatxo‘ja bilan uchrashuvlari u hibsga olinguniga qadar yashirin ravishda bo‘lgan, chunki Atoullloh Xo‘jayev 1929–1932-yillarda ham, ya‘ni jamoalashtirish siyosati davrida Buxorodan badarg‘a qilingan edi. U o‘sha yillarda Xorazm, Toshkent, ba‘zan Turkiston tomonlarda ovloq

⁵⁸ Репрессия: 1937–1938 годы. Документы и материалы. Выпуск 1. (Составители Шамсутдинов Р.Т., Каримов Н.Ф., Юсупов Э.Ю. Отв. редактор Каримов Н.Ф.). – Т.: Шарк, 2005. – С. 73–74.

⁵⁹ Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо... – Б. 119–172.

⁶⁰ O‘sha asar. – Б. 23.

⁶¹ Бухоролик қатағон қилинган уч буюк сиймо... – Б. 150–160.

⁶² O‘sha asar. – Б. 130–140.

⁶³ O‘sha asar. – Б. 140–150.

⁶⁴ Шариф шаҳар фарзанди. Профессор С.И.Иноятонинг 80 йиллик юбилейига. – Бухоро, 2018. – Б. 33.

joylarda sovet josuslaridan yashirinib yurishga majbur bo'lgan⁶⁵. Tadqiqotchi tarixiy adabiyotlar va shaxsiy muloqotlar asosida Atoulloh Xo'jayevning farzandlari va ularning keyingi avlodlari haqida tizimli ravishda ma'lumotlar keltirgan. Ayniqsa, ilm-fan sohasida yuksak cho'qqilarga erishgan, tarix fanlari doktori, professor S.I.Inoyatovning ilmiy faoliyati keyingi yillarda yaratilgan tarixiy tadqiqotlar orqali atroflicha tahlil qilingan⁶⁶.

Professor Sulaymon Inoyatovich Inoyatovning o'z avlodlari shajarasi hamda bobokaloni Atoulloh Xo'jayev hayoti va faoliyatiga oid istiqlol yillarida amalga oshirgan ikkita katta ilmiy xizmatini alohida ta'kidlash mumkin, birinchidan, olim professor Q.K.Rajabov bilan hamkorlikda Atoulloh Xo'jayev va uning qarindoshlari Fayzulla Xo'jayev hamda Usmonxo'jalar haqida 3 kitobdan iborat alohida to'plamlar chop etildi⁶⁷. Olimning yana muhim xizmati Atoulloh Xo'jayevni ilmiy jamoatchilik va xalqimizga tanitishda e'lon qilgan bu boradagi ilmiy maqolalari hamda Respublika va xalqaro miqyosdagi turli darajadagi anjumanlarda qilgan ma'ruzalaridir⁶⁸.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida 1937-1938-yillarda siyosiy qatag'onga uchragan Atoulloh Xo'jayev singari vatandoshlarni, jadid va taraqqiyparvarlarning hurmatini joyiga qo'yish, ular haqida asarlar yozish imkoniyati kengaydi, jadidlar tarixini yangidan o'rganish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Dissertatsiyada Atoulloh Xo'jayevning yagona o'g'il farzandi Inoyatxo'ja Atoullohxo'jayevdan tarqalgan farzandlarining o'nlab nevara-evaralari xalq xo'jaligi turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotganligi dalillangan. Shuningdek, ular orasida rahbar xodimlar, olimlar, ziyoli pedagoglar, tibbiyot sohasi mutaxassislari, muhandis va tadbirkorlar yetishib chiqqanligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, Atoulloh Xo'jayevning keyingi avlodlari hamon noma'lum bo'lgan qavm-qarindoshlarini izlab topishda davom etmoqdalar.

XULOSA

⁶⁵ Inoyatov S. Buxoroi sharif x'ujalari: Usmon X'uja, Otaulla X'ujaev, Fayzuulla X'ujaev ajdodlari va avlodlari shajarasi. – Buxoro: Durdona, 2022. – B. 130.

⁶⁶ Sharif sha'ar farzandi... – B. 306; Inoyatov S. Buxoroi Sharif x'ujalari... – B. 177. Sulaymon Inoyatovich Inoyatov. Bibliografiya. – Buxoro, 2023. – B. 127; Ustoz – ma'naviyat me'mori (ilmiy-nazariy t'uplam). – Buxoro, 2023. – B. 417. Tarixchi olim professor Sulaymon Inoyatov ilmiy maktabi. – Buxoro: Durdona, 2024. – B. 187.

⁶⁷ Inoyatov S., Rajabov Q. Buxorolik kata'gon qilingan uch bуюk sийmo: Tarix va ta'qdir (Fayzuulla X'ujaevning ha'eti va faoliyatiga doir ma'lumotlar). 1-kitob. – Buxoro: Durdona, 2023; Inoyatov S., Rajabov Q. Buxorolik kata'gon qilingan uch bуюk sийmo: Tarix va ta'qdir (Usmon X'ujaning ha'eti va faoliyatiga doir ma'lumotlar). 2-kitob. – Buxoro: Durdona, 2023.; Inoyatov S., Rajabov Q. Buxorolik kata'gon qilingan uch bуюk sийmo: Tarix va ta'qdir (Otaulla X'ujaevning ha'eti va faoliyatiga doir ma'lumotlar) 3-kitob. – Buxoro: Durdona, 2023.

⁶⁸ Inoyatov S.I. Aka-uka jadidlar uyida muzey ochiladi. / “Jadid namoyondalari ilmiy-ma'naviy merosining bugungi kundagi o'rni va ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami (2024-yil 13-iyun). – Navoiy, 2024. – B. 13–21.; Shu muallif. Fayzulla Xo'jaevning safdoshi va hukumatning faol vakili // “Fayzulla Xo'jayev – inson, siyosat arbobi va millat fidoiysi” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Buxoro, 2018. – B. 140–145; Shu muallif. Otaulla Xo'jayev – milliy o'zlikni anglash, mustaqil va ozod vatan uchun kurashning sobitqadam timsoli. “Jadidlar: Milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya. 2023-yil 11-12 dekabr. – Toshkent; Shu muallif. Uch hokimiyat qolipiga sig'magan siymo (Ataulla Xo'jayev hayoti va faoliyatiga chizgilar). Buxara Cumhuriyeti 101 Yaşında. Bildireler (Uluslararası Sempozyum Vazilari) Istanbul: Kutlu Yayınevi. – Taşkent: Mumtoz, 2021. – S. 19–31.

Dissertatsiyada “Atoullloh Xo‘jayevning taraqqiyparvarlik va siyosiy-ijtimoiy faoliyati” mavzusi o‘rganilib, quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

1. XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligida taraqqiyparvarlik harakati yuzaga keldi. Ular orasida savdogar, ulamo, ziyoli va oddiy mehnatkash toifa vakillari mavjud bo‘lib, Turkistonni taraqqiy qilgan, mustaqil yurt va vatan sifatida ko‘rish istagi bilan maydonga chiqqan edilar. Buxoro amirligidagi jadidchilik harakati o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turardi. Rossiya imperiyasi protektorati va amirning ichki monarxiya boshqaruvi sharoitida ilg‘or g‘oyalar bilan maydonga chiqish, jadidlardan mislsiz jur‘at va jasoratni talab qilardi. XX asr boshlarida amirlikda ijtimoiy-siyosiy jarayon keskin tus olgan, aytish mumkinki, inqirozli holat davom etayotgan bir paytda, yuzaki o‘qitish tizimi an‘anaga aylangani bilan bog‘liq salbiy jihatlari yaqqol ko‘zga tashlana boshlangan edi. Atoullloh Xo‘jayev va uning safdoshlari singari jadid ma‘rifatparvari shunday murakkab tarixiy vaziyatda faoliyat maydonga kirdi. Alohida ta‘kidlash joizki, ushbu inson va uning safdoshlari Buxoro istiqbolini o‘z shaxsiy manfaatlari, boylik va aziz jonlaridan ham yuqori qo‘yishga qasamyod qilishgandi.

2. Tarixiy ma‘lumotlar tahlil qilinar ekan, Atoullloh Xo‘jayev maktabchilik va jadidchilik harakatiga XX asr dastlabki o‘n yilligi oxirida kirib kelganligi aniqlandi. 28-30 yoshlarda Buxoro ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy jarayonlarida faol ishtirok eta boshlagan Atoullloh Xo‘jayev yetarli hayotiy tajriba yo‘lini bosib o‘tgan edi. U Buxoroning taniqli savdogarlar sulolasi vakili sifatida otasining savdo-sotiq ishlariga yordam berish orqali Turkiston mintaqasining o‘nlab shaharlariga sayohatlar qilgan, amirlik aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan yaxshigina xabardor bo‘ldi. Yirik sarmoyador oilada tavallud topganligi sababli shaxsiy muallimlardan, keyinchalik maktab va madrasada tahsil olib dunyoviy hamda diniy bilimlardan yaxshigina xabardor bo‘lgan, afsuski o‘z davrining qaysi muallim va mudarrislaridan qaysi madrasada ta‘lim olganligi bilan bog‘liq aniq bir ma‘lumotlarni uchratmadik. Atoullloh Xo‘jayevning otasi Po‘latxo‘ja Karomatulloh Xo‘ja o‘g‘li va tug‘ishgan akasi Usmon Xo‘janing xalqparvarligi, adolatpeshaligi, ma‘rifatparvarligi, Buxoro kelajagi haqidagi ilg‘or fikrlari uning ongiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shular sababli Atoullloh Xo‘jayev progressiv qarashlarga ega bo‘lgan, istiqbolli ezgu maqsad va istaklarga daxldor inson bo‘lib shakllandi.

3. Atoullloh Xo‘jayev barcha jadidlar singari zulmat va qoloqlikning asosiy ildizi bu ilmsizlik va savodsizlikda deb tushundi. U dunyoni faqat ilm qutqazadi, “Bitta ezgulik bor, bu – ilmdir, bitta yovuzlik bor, bu – jaholat, ilmsizlikdir” degan aqidaga amal qilib, jadid yo‘lboshchilaridan biriga aylandi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar tufayli Buxoro jadidlari asos solgan “Tarbiyayi atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) (1908), “Ma‘rifat kutubxonasi”, “Barakat shirkati”, “Buxoro foydali ilmlarni targ‘ib qilish uyushmasi” kabi tashkilotlar faoliyatida ishtirok etdi va oldingi saflarning birida turdi. 1909–1913-yillarda Istanbul (usmoniyalar saltanati poytaxti)da ta‘lim olib qaytdi. Istanbul tahsilidan so‘ng, Buxoro amirligidagi

maktabchilik harakatining ikkinchi bosqichi tashabbuskorlari va amaliyotchilaridan biriga aylandi.

4. Atoullloh Xo‘jayev 1913-1914-yillarda amirlikning Eski Buxoro, G‘ijduvon, Karmana, Nurota, Chorjo‘y, Karki, Qorako‘l, Qarshi va Shahrisabz kabi hududlarida jadid maktablari ochib bolalarga ta‘lim berdi. Atoullloh Xo‘jayev 1913-1914-yillarda Shahrisabz va Qorako‘lda ochgan maktablariga amir qo‘shbegisi hamda mahalliy beklardan moddiy yordam berilishiga erishgandi. Uning 30-35 o‘quvchidan iborat maktablarida sinf-dars tizimida o‘quvchilar yorug‘ xonada bir kunda tanaffuslar bilan 4-5 soat tahsil olgan. O‘quvchilarga ko‘rgazmali qurollar (xarita, globus, fototasvirlar va h.) orqali, asosan, dunyoviy ilmlar berilgan. Dunyoviy va diniy ilmlardan Atoullloh Xo‘jayevning shaxsan o‘zi saboq bergan. Atoullloh Xo‘jayev maktabida o‘quvchilar 2-3 oyda (ayrim manbalarda 45-50 kunda) savodini chiqarib, o‘qish yozishni o‘rgangan va ular ota-onalar ishtirokida imtihon qilingan.

5. Atoullloh Xo‘jayevning 1914–1920-yillardagi faoliyati manbalar tahlili orqali o‘rganilar ekan, uning maktablarida o‘qish ba‘zan yashirin (nolegal) sharoitda davom ettirilganligi, biroq bu borada olib boriladigan ishlarda to‘siqlar vujudga kelganligi ayon bo‘ladi. Qolaversa, Buxoro amirligida 1917-1918-yillarda kechgan siyosiy voqealar (1917-yil 7-aprel amir manifesti, 1918-yil mart Kolesov voqeasi) jadidlar faoliyatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. 1917-yil aprel manifesti bilan bog‘liq voqealar tufayli Atoullloh Xo‘jayev amir zindoniga saqlandi. 1918-yil “Kolesov voqealari”dan keyin ko‘p sonli jadidlar qatorida muhojirlikda yashashga majbur bo‘ldi. U Samarqand va Toshkent shaharlaridagi muhojirlik davrida Buxoro kompartiyasi (BKP)ning “so‘l eserlar” qanotida haqli talablarni ilgari surdi. Biroq partiya yo‘lboshchilarining asossiz tanqidlari tufayli uni BKP saflaridan chiqarilishi partiya birligiga raxna soldi.

6. Atoullloh Xo‘jayev faoliyatining eng jo‘shqin va samarali bosqichi BXSR hukumati tarkibida turli lavozimlarda ishlagan yillarga to‘g‘ri keladi. 1920–1923-yillarda, ya‘ni BXSR yillarida Atoullloh Xo‘jayev faoliyat yuritgan lavozimlar haqida tadqiqotda tarixiy-xronologik izchillikda ma‘lumotlar berildi. Uning nafaqat BXSR hukumatidagi siyosiy rahbarligi, qolaversa, jamoat uyushmalaridan yoshlar tashkiloti, kasaba uyushmalari, “Dobrolyot”, “Dobroflot” ko‘ngilli jamiyatlaridagi tashkilotchilik faoliyati muhim ahamiyatga ega bo‘lgandi. Atoullloh Xo‘jayevning BXSR iqtisodiy ruvojlaniishi, xalq xo‘jaligining texnik ta‘minoti, o‘quvchi va talabalarni o‘qish uchun xorijga yuborish, madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabilarga qo‘shgan hissasi ham e‘tiborga loyiq.

7. Atoullloh Xo‘jayev hukumatdagi o‘z maslakdoshlari bilan haqli talablarni ilgari surganligi, millatparvarligi va yurtparvarligi uchun “Markaz” rahbarlarining bolshevikcha siyosati qolipiga sig‘may qolgandi. Uning va millatparvar safdoshlarining sovet hokimiyati mutasaddilari oldiga qo‘ygan talablarida Qizil Armiya qismlarini Buxoro hududidan chiqarib yuborish, maxsus bo‘lim (особый отдел)ni tugatish, taslim bo‘lgan “bosmachilar”ga umumiy afv e‘lon qilish, qo‘rboshilardan BXSR hukumati organlarida foydalanish, milliy armiya tashkil

etish, Favqulodda komissiya (VChK)ni tugatish, harbiy tribunallarni bekor qilish kabilar ilgari surilgandi. Garchi sovet hokimiyati ushbu talablarni e'tiborga olmagan bo'lsa-da, bu haqiqiy millatparvar hukumat a'zolarining istak va talablari edi. Ushbu haqli talablar tufayli 1923-yil yozida Atoullloh Xo'jayev o'z maslakdoshlari hisoblangan Abdurauf Fitrat, Sattorxo'ja va Yoqubzodalar bilan birga hukumatdagi barcha vazifalardan ozod qilindi.

8. Atoullloh Xo'jayev haqida 1923-yil oktabrda Buxoro mehnatkashlarining IV qurultoyida keskin jazo ko'rish haqida qaror qabul qilindi. Davriy matbuotda u va yuqorida nomlari qayd etilgan hukumat a'zolari bo'lgan safdoshlari haqida asosan bo'htondan iborat buyurtma bilan yozilgan xabar va maqolalar e'lon qilindi. BXSР hukumati tarkibidan butunlay chetlatilgan ushbu shaxs, 1925–1937-yillarda O'zbekiston SSR hukumati topshirig'i bilan bir qator sovet idoralarida xo'jalik sohasida vijdonan faoliyat yuritdi. Biroq 1937-1938-yillarning “katta terror”dan iborat qatag'oni Atoullloh Xo'jayevni chetlab o'tmadi. 1937-yil yanvar va oktabr oylarida hibsdan saqlanib, tergov qilingan Atoullloh Xo'jayev bilan birga 17 nafar jadid munavvarlari, taraqqiyparvarlar, sobiq BXSР hukumati a'zolari 1937-yil oktabrida “uchlik” qarori bilan eng og'ir jazo, ya'ni otuvga hukm qilindi. Atoullloh Xo'jayev bilan otilgan shaxslar ism-shariflari haqida tadqiqotlarda ma'lumot berilgan. Atoullloh Xo'jayev shahid ketganidan 28 yil o'tib, 1965-yil 2-dekabrda uning nomi oqlandi.

9. Atoullloh Xo'jayev uzoq yillar “xalq dushmani”, “millatchi”, “Vatan xoini” kabi tavqi la'natlar ostida qoralanib kelindi. Uning ozodlik va erk uchun kurash yo'lidagi faoliyati sovet mafkurasi asosida salbiy baholanib kelganligi avlodlari qalbida ham ayanchli iz qoldirdi. Ikkinchi jahon urushi davrida va sovet-nemis frontida janglar yuz bergan 1941–1945-yillarda Atoullloh Xo'jayev singarilarni qoralash, ular oilalarini ta'qib qilish mushkul tarixiy vaziyat tufayli bir qadar yumshadi. Biroq sovet hukumati 1950-yillarda azaliy qiyofasiga qaytib Atoullloh Xo'jayev singari jadidlarning izdoshi va shogirdlari bo'lgan o'zbek ziyoli va adiblarining millatparvar vakillarini qatag'onning yangi oqimiga tortdi. 1953-yilda “xalqlar otasi” I.V.Stalin (1878–1953; 1922–1953)ning vafoti, sovet jamiyatida boshlangan “iliqlik siyosati” 1956-yil iyunda KPSSning XX syezdida “Shaxsga sig'inish va uning oqibatlarini tugatish to'g'risida”gi qaror qabul qilinishi kabi omillar tufayli “xalq dushmanlari”, shuningdek, jadidlarni oqlash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Butun Ittifoq bo'ylab aybsiz aybdorlar bo'lib qolgan ming-minglab shaxslar qatorida Atoullloh Xo'jayev nomi ham oqlandi. Biroq uni oqlash 1965-yil 2-dekabrga to'g'ri kelgani uzoq yillar davom etib kelgan haqorat, tavqi la'nat va kamsitishlardan so'ng yuz bergani, ortda qolgan davrdagi ma'naviy-ruhiy yo'qotishlar o'rnini to'ldira olmasligi o'z-o'zidan ayon.

10. Mustaqillik yillarida “Ozodlik!”, “Tenglik!”, “Birlik” shiorlari bilan o'z jonini xavfga qo'yib bo'lsa-da, mardlarcha kurash maydoniga chiqqan jadid munavvarlarining hurmat-e'tibori o'z o'rniga qo'yildi. Ular haqida haqiqat nuri bilan yo'g'rilgan yuzlab asar va maqolalar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. 2023-yil 11-12-dekabr Toshkentda jadidlarga bag'ishlangan Xalqaro anjumanda “Atoullloh Xo'jayev – milliy o'zlikni anglash, mustaqil va ozod Vatan uchun kurashning

sobitqadam timsoli” mavzusidagi ma’ruzani ushbu insonning nevarasi, taniqli tarixchi olim, tarix fanlari doktori, professor, “Do‘stlik” va “El-yurt hurmati” ordenlari hamda o‘nlab davlat va hukumat mukofot sovrinlari egasi Sulaymon Inoyatovich Inoyatov (1938–2024) tomonidan qilingani alohida e’tiborga loyiqdir. Buxoroda Atoullloh Xo‘jayev yashagan hovli o‘rnida “Jadidlar tarixi” davlat muzeyi tashkil etilayotgani va bu boradagi xayrli ishlar Atoullloh Xo‘jayev ruhi poklarini shod etishdagi qutlug‘ qadamdir. Xullas, millat va Vatan uchun kurashlardan oldingi saflarda bo‘lgan, jadidchilik harakati va tarixida o‘chmas iz qoldirgan Atoullloh Xo‘jayev nomi mangulikka daxldordir.

Tadqiqot yakunida yuqoridagi xulosalar asosida quyidagicha **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi.

1. Buxoro davlat universiteti huzuridagi Qatag‘on qurbonlari va xotirasi muzeyining 2-zalini (Sho‘ro davri, 1920–1991) Atoullloh Xo‘jayev shaxsi va faoliyatiga oid fotolavhalar, buyum, xorijiy va mahalliy arxiv hujjatlari hamda eksponatlar bilan boyitish.

2. 2030-yilda Atoullloh Xo‘jayev tavalludiga 150 yil to‘ladi. Ushbu tarixiy sanaga bag‘ishlab “Atoullloh Xo‘jayev va jadidchilik harakati tarixi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish.

3. Buxoro davlat universiteti huzuridagi Qatag‘on qurbonlari va xotirasi muzeyida, Fayzulla Xo‘jayev va Sadriddin Ayniy kabilarning uy-muzeylarida, muassasa va tashkilotlardagi muzeylarda Atoullloh Xo‘jayev hayoti va faoliyatiga qaratilgan ko‘chma ko‘rgazma va eksponatlar namoyishini tashkil etish.

4. Buxoro jadidlari va BXSР milliy hukumati arboblari haqidagi arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari va ilmiy asar hamda maqolalarning elektron veb-saytini yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АРТИКОВ ЗАФАР ЗАРИПОВИЧ

**ПРОГРЕССИСТСКАЯ И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АТАУЛЛАХА ХОДЖАЕВА**

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по историческим
наукам**

Бухара – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций под номером B2022.2.PhD/Tar1077.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета (<http://www.buxdu.uz/>) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Хантов Шадмон Ахмадович
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: Турсунов Равшан Нормуратович
доктор исторических наук (DSc), профессор
Тайронов Ёкубжон Рапикович
кандидат исторических наук, доцент

Ведущая организация: Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится «9» августа 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.Tar.72.07 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. М.Икбол,11.Тел.: (365) 221-29-14; Факс: 0(365) 221-27-07. E-mail.: [buxdu_rektor@buxdu.uz.](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за №). (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. М.Икбол,11.Тел.: (365) 221-29-14; Факс: 652212707.)

Автореферат диссертации разослан «24» июля 2025 года
(реестр протокола рассылки № 49 от «26» июля 2025 года).



А.Т. Очилов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор

Б.Б. Болтаев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии исторических наук (PhD), доцент

К.Р. Рахимов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Современные процессы глобализации и интеграции, наряду с укреплением общечеловеческих ценностей, всё острее ставят вопрос о гармонии с национальными интересами, а также усиливают необходимость глубокого изучения деятельности исторических личностей и их научного наследия. Это связано с тем, что каждый народ и нация испытывают гордость за великих сынов своей земли и за их вклад в развитие общества. В этом контексте изучение вклада выдающихся личностей, внёсших существенный вклад в прогресс своей страны и Отечества в разные исторические периоды, приобретает особую научную актуальность.

В ряде научно-исследовательских центров мира проводятся исследования, посвящённые возникновению в конце XIX — начале XX века в Туркестане и Бухаре прогрессистского движения, джадидизма, их идейному и идеологическому взаимодействию с восточными просветителями, а также усилиям, направленным на освобождение нации. В результате этих исследований были получены ценные сведения о становлении джадидизма, реформах в сфере просвещения в Туркестане конца XIX — начала XX века, деятельности турецких офицеров, проживавших в регионе и занимавшихся школьным делом, а также о жизни и деятельности самих джадидов и их практической работе.

Тем не менее, такие вопросы, как создание школ нового метода в Бухарском эмирате, освещение деятельности видных представителей джадидского движения, а также социально-политическая деятельность Атауллаха Ходжаева, до сих пор остаются недостаточно изученными и требуют дальнейшего научного осмысления.

В годы независимости в Узбекистане на повестку дня были поставлены вопросы изучения истории джадидского движения и репрессированных соотечественников, публикации и популяризации их наследия. Стало очевидным, что впереди ещё многое предстоит сделать для выражения уважения к светлой памяти репрессированных и донесения исторической правды о них до широких слоёв общества. «Несмотря на то, что в ряде стран мира было создано множество исследований, посвящённых формированию и развитию джадидизма — как уникального социально-политического феномена, — комплексное и системное изучение вклада представителей этого движения в становление национальной государственности, региональной самобытности и развитие гражданского общества на территории Центральной Азии остаётся актуальной задачей»

¹. Исходя из этого, особую научную значимость приобретает анализ жизненного пути и деятельности Атауллаха Ходжаева, его социально-политической активности, работы в правительстве БНСР, борьбы за

¹ Поздравительное обращение Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева участникам международной конференции, посвящённой изучению наследия джадидов, от 6 марта 2023 года. <https://www.president.uz/uz/lists/view/6007>

национальную независимость, а также восстановление справедливости в отношении его личности и преемственности поколений.

Данное исследование в определенной степени будет служить реализации задач, обозначенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 мая 2024 года № ПП-201 «О создании Государственного музея наследия джадидов», Постановлении Президента от 19 июля 2024 года № ПП-270 «О расширении работ по изучению, популяризации жизни и деятельности наших соотечественников — жертв политических репрессий и увековечиванию их памяти», Указе Президента от 8 октября 2020 года № УП-5598 «О дополнительных мерах по дальнейшему изучению наследия жертв репрессий и увековечиванию их памяти», а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 ноября 2017 года № 936 «О мерах по созданию Музея памяти жертв репрессий при Кабинете Министров Республики Узбекистан и музеев памяти жертв репрессий в структурах высших учебных заведений в регионах», наряду с другими нормативно-правовыми актами, касающимися данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики: I. «Формирование системы социальных, правовых, экономических, инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы.

Исследовательские работы об Атауллахе Ходжаеве (1880–1937), преданно служившем своей стране и Родине и являющемся до недавних времен забытой фигурой, про его жизненный путь и великих заслугах можно условно разделить на три группы:

1. *Работы, опубликованные в годы Советской власти.*
2. *Работы и исследования, созданные за годы независимости.*
3. *Зарубежные издания.*

